

**XXI ASRDA PEDAGOGIK FAOLIYAT VA PEDAGOGIK
QOBILIYATLAR**

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti 3-bosqich talabalari

Abdurahmonova Mohichehra Mumin qizi

Abdinazarova Madina Eldor qizi

Qoryog'diyeva Mohinur Oybek qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson ijtimoiy hayotdagi faolligi uning pedagogik faoliyatidagi o'ziga xosligi hamda o'qituvchi pedagog shaxsiga lozim bo'lgan qobiliyatlarning ish samaradorligiga ta'siri to'g'risida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar. *Pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyat xususiyatlari, qobiliyat, umumiy va xususiy, tabiiy va maxsus insoniy qobiliyatlari, fan, san'at, amaliyot.*

Kirish.

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida ta'lim tizimining yanada takomillashtirilishini hamda ta'lim samaradorligini eng yuqori cho'qqiga olib chiqish deb ayta olamiz. Bu bevosita ta'lim xodimlarining kasbiy mahorati va pedagogik qobiliyatga bog'liqdir.

Eng avvalo, pedagogik faoliyat haqida so'z yuritadigan bo'lsak, faoliyat bu faollikning shaxsga xos turi sifatida vujudga kelib, u o'zining psixologik alomatlarini bilan xatti-harakatdan tafovutlanadi. Bundan pedagogik faoliyatni ajratib oladigan bo'lsak, pedagogik faoliyatning maqsadi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, jamiyat tomonidan belgilanadi va asosan yosh avlod shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu faoliyat avlodlarning o'zaro ijtimoiy bog'liq aloqalarni amalga oshirishga yoshlarni tayyorlash insonning tabiiy imkoniyatlaridan jamiyat tajribalarini egallashda foydalanishdan iborat.

O'qituvchi shaxsining pedagogik faoliyatida:

1. O'z-o'ziga ishonch, ya'ni „mening misolimda bilimdon, talabchan, haqiqiy o'qituvchini ko'rishsin“.
2. Pedagogik ta'sir vositalariga ega bo'lishi;



3. O'quvchilarga , bolalar jamoasiga tayanishi;

4. Pedagogik faoliyat maqsadiga insonparvarlik strategiyasiga vositalarni ijodiy o'zgartirib faoliyat obyektiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Kabi xususiyatlarni ko'rish mumkin.

Pedagogik faoliyat jarayonida pedagogik qobiliyatning ham o'rni va ahamiyati yuksakdir.

Qobiliyat nima?

Qobiliyat - insonlarning bosh miya faoliyatiga bog'liq bo'lib, murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar majmui. Qobiliyatni bir nechta turlarga ajratish mumkin.

1. Tabiiy qobiliyat.

2. Maxsus insoniy qobiliyatlar.

Maxsus qobiliyatlar ham o'z o'rniga ikki turga bo'linadi:

1. Umumiy qobiliyatlar

2. Xususiy qobiliyatlar.

Xususiy qobiliyatlar 3turga bo'linadi:

1. Fan

2. San'at

3. Amaliyot

Kimningdir qobiliyati ilmiy jihatdan bir qadar rivojlangan bo'lsa, yana kimnikidir san'at jihatdan yuksaklangan bo'ladi. Masalan , o'zimiz ham bir ko'ylakni ko'rganimizda uni tikkan qiluvchining mahoratiga, qobiliyatiga qoyil qolamiz. Yana boshqa ko'ylakning kamchiligini ko'rganimizda unga o'zimizcha baho beramiz. Ammo bu degani ko'ylakni chiroyli tikkan tikuvchi qobiliyatli, kamchilikli ko'ylak egasi qobiliyatsiz emas. Hammaning o'z xususiy qobiliyati mavjuddir. Biror ma'lumot yoki fan bo'yicha qobiliyati yaxshi o'quvchi tez va oson o'rganishi mumkin, lekin shunga nisbatan qobiliyati yo'q o'quvchi ham tinimsiz mehnat evaziga qobiliyatni o'zida shakllantirishi mumkin. Shu o'rinda bugungi pedagogik faoliyatda ham pedagogik qobiliyatning o'rni katta.



Pedagogik qobiliyat - shaxsning pedagogik faoliyatga layoqati mavjudligi demakdir. Pedagogik qobiliyatlar bir necha turga bo'linadi.

1. Didaktik qobiliyatlar
2. Akademik qobiliyatlar
3. Perseptiv qobiliyatlar
4. Nutq qobiliyatlar
5. Tashkilotchilik qobiliyatlari
6. Avtoritar qobiliyatlar
7. Kommunikativ qobiliyatlar

Pedagoglik sohasini tanlagan har bir shaxs yuqoridagi pedagogik qobiliyatlarni o'zida bevosita shakllantirgan bo'lishi kerak. Quyida bir misolni ko'rib chiqamiz.

1. Matematika fani sohasida bo'lgan qobiliyatlar
2. Adabiyot va ona tili fanlariga oid qobiliyatlar

Xuddi shu ikki fan o'rtasida bir qancha tafovutni kuzatish mumkin. O'z hayotimizda uchratgan matematikani zo'r bilgan odam odatda ona tili va adabiyot faniga kelganda biroz oqsaydi yoki aksincha. Bu degani shu aniq fanga bo'lgan qobiliyati rivojlangan ammo gumanitar fanlardagi qobiliyati orqada qolgan bo'lishi mumkin. Bu deganiki, insonning ham narsaga qobiliyati bor, lekin qaysidir ko'proq rivojlangan, qaysidir oddiy bilish jarayoniga aylanib qolgan. Ya'ni, shu mavzuda faqat ma'lumotlar bera oladi, ammo amaliy bajarishni muvaffaqiyatli amalga oshira olmasligi ham mumkin.

Ammo pedagog shaxsiga pedqobiliyatning barcha turi mujassamlashgan bo'lishi kerak, bolaga o'quv materialini aniq yetkazib berishda didaktik, o'quvchiga faqat bir sohada emas balki uni atrofdagi barcha ko'rib turgan narsa va hodisalar haqida yuzaki bo'lsa hamki ma'lumot berishda akademik, o'quvchi shaxsini ham tashqi ham ichki jihatdan idrok qila olish uchun perseptiv, bola shaxsini o'tayotgan darsiga qiziqтира olishi va o'z fikrini bolalarga mimika va pantomimika yordamida ham aniq yetkaza olish uchun nutq, tadbir va bayramlar, shuningdek ochiq darslarni chiroyli saviyada o'tkaza olish uchun tashkilotchilik, darslarda intizomni hamda qat'iylikni saqlash uchun avtoritar, ham o'quvchi ham ota-onalar hamda o'z kollektivi bilan



samarali muloqotni yo'lga qo'ya olish uchun kommunikativlik qobiliyatni talab qilinadi.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir pedagog o'z faoliyatida mehr muhabbat, sabr -toqat, kuzatuvchanlik, ijodkorlik va muloqot qobiliyatlariga ega bo'lishi zarur. Mazkur qobiliyatlar o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan munosabatini belgilab, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. Shunday ekan, pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish ustida doimiy ishlash - har bir zamonaviy o'qituvchining asosiy modelidir.

Shu o'rinda bizda pedagogik qobiliyatlar ustida ishlanmaganlik masalasi ham bor. Agar o'qituvchi pedagog o'z ustida ishlamasa ish faoliyatida ko'p qiyinchiliklarga uchraydi. Masalan, bugungi kunda joriy qilingan o'qituvchilar uchun davlat attestatsiyasi va o'quvchilar uchun fan olimpiadalari ham aynan qobiliyatlar, yaxshi faoliyatlar to'qnashuvidir. Shuning uchun ham bugungi kunda yurish emas yugurish kerak deymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. - 2017. - Т. 31.
2. Жураев Б. Т. Гуманизация дидактических отношений между учителем и учащимся в педагогических идеях Востока //VIII Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". - 2018. - С. 120-122.
3. Жураев Б. Т. Социально-духовное развитие студентов //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. - 2019. - С. 22-23.
4. Жураев Б. SHARQDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING MAYDONGA KELISHI VA RIVOJLANISHI //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально -гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. - 2023. - Т. 3. - №. S/2. - С. 343350.



5. Ходжаев Б. К., Жураев Б. Т. Повышение нравственно-эстетической культуры слушателей института повышения квалификации работников народного образования // Экономика и социум. - 2022. - №. 3-2 (94). - С. 1217-1222.
6. E. G'oziyev. Umumiy psixologiya. 1-kitob. Toshkent „Universitet" - 2002.